ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 15.09.2026 · Accepted: 20.10.2026 · Published: 12.11.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/n5wt3929

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 2 (4), 2026
www.jnculture.uz

Qashqadaryo vohasida “Sust xotin” marosimi aytimlarining hududiy va ijro xususiyatlari

(Regional and performance characteristics of “Sust Khotin” ritual songs in the Kashkadarya oasis)

Shoxbozbek Abduxoshimov

Department of History and Theory of Uzbek Maqom
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
ORCID: 0009-0000-8148-2520
E-mail: abduxoshimovshoxbozbek@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qashqadaryo vohasida yomg‘ir tilash bilan bog‘liq “Sust xotin” marosimi aytimlarining hududiy va ijro xususiyatlari folklorshunoslik hamda etnomusiqashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Tadqiqotga Chiroqchi tumanida, Qamashi tumanining Qirg‘izsaroy qishlog‘ida va Kasbi tumanining Mirishkor qishlog‘ida avval qayd etilgan marosim namunalari asos qilib olingan. Ularning o‘tkazilish tartibi, ijrochilar tarkibi, marosim buyumlari va jamoaviy harakatlari o‘zaro qiyoslanib, mahalliy an’analardagi umumiylik va tafovutlar aniqlanadi. Aytim matnlaridagi takroriy murojaatlar, so‘roq shakllari, tabiat hodisalari bilan bog‘liq obrazlar va hosil barakasini tilash mazmuni poetik vazifasiga ko‘ra tahlil qilinadi. Xususan, Chiroqchi variantidagi tabiat holatini tasvirlashdan tilak bildirishga o‘tish, Qirg‘izsaroy namunasidagi obrazni ulug‘lash va unga murojaat qilish, Mirishkor aytimidagi ixcham tilak ifodasi o‘rtasidagi farqlar ochib beriladi. Marosim musiqasiga oid ilmiy tadqiqotlar va nota namunalari asosida qisqa intonatsion tuzilmalar, ohang takrorlari, yakka hamda jamoaviy ijro masalalari ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida marosimning umumiy vazifasi saqlangan holda uning hududiy ko‘rinishlari va ijro an’analari turlicha shakllangani asoslanadi. Shuningdek, mazkur folklor namunalarini audiovizual shaklda hujjatlashtirish va mahalliy kuy variantlarini musiqiy jihatdan o‘rganishning ilmiy ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo vohasi, Sust xotin, mavsumiy marosim, marosim folklori, marosim aytimlari, hududiy xususiyatlar, ijro an’analari, etnomusiqashunoslik.

Abstract

This article examines the regional and performance characteristics of the ritual songs associated with “Sust Khotin”, a traditional rain-invoking ceremony practised in the Kashkadarya oasis, from the perspectives of folklore studies and ethnomusicology. The study draws upon previously documented ritual practices from the Chirokchi district, the village of Kirgizsaroy in the Kamashi district, and the village of Mirishkor in the Kasbi district. By comparing the sequence of ritual actions, the composition of performers, ceremonial attributes, and collective practices, the research identifies similarities and differences among local traditions. Particular attention is devoted to the poetic functions of recurring invocations, interrogative forms, imagery associated with natural phenomena, and expressions of wishes for agricultural abundance. The analysis reveals distinctions between the Chirokchi variant, which progresses from descriptions of natural conditions to expressions of wishes; the Kirgizsaroy variant, characterised by the glorification of and appeals to a symbolic figure; and the Mirishkor variant, distinguished by concise expressions of wishes. Drawing on scholarly research and musical notation relating to ritual music, the article also considers short intonational structures, melodic repetitions, and solo and collective performance practices. The findings demonstrate that, despite the preservation of the ritual’s fundamental function, its regional forms and performance traditions developed in different ways. The study further highlights the scholarly importance of audiovisual documentation of these folklore traditions and the musical investigation of local melodic variants.

Keywords: Kashkadarya oasis, Sust Khotin, seasonal ritual, ritual folklore, ritual songs, regional characteristics, performance traditions, ethnomusicology.

Аннотация

В статье исследуются региональные и исполнительские особенности обрядовых песнопений «Суст хотин», связанных с традицией вызывания дождя в Кашкадарьинском оазисе, с позиций фольклористики и этномузыкознания. Основу исследования составляют ранее зафиксированные образцы обрядовой традиции Чиракчинского района, кишлака Кыргызсарай Камашинского района и кишлака Миришкор Касбинского района. На основе сопоставления порядка проведения обрядов, состава исполнителей, ритуальной атрибутики и коллективных действий выявляются общие и отличительные черты локальных традиций. Особое внимание уделяется анализу поэтических функций повторяющихся обращений, вопросительных конструкций, образов природных явлений и благопожеланий, связанных с плодородием и обильным урожаем. В частности, раскрываются различия между чиракчинским вариантом, в котором описание состояния природы постепенно сменяется выражением благопожеланий, кыргызсарайским

вариантом, основанным на прославлении символического образа и обращении к нему, и миришкорским вариантом, отличающимся лаконичностью выражения пожеланий. С опорой на научные исследования обрядовой музыки и нотные образцы рассматриваются также краткие интонационные структуры, мелодические повторы, особенности сольного и коллективного исполнения. В результате исследования обосновывается положение о том, что при сохранении общей функции обряда его региональные формы и исполнительские традиции развивались неодинаково. Кроме того, подчёркивается научная значимость аудиовизуальной фиксации данных фольклорных образцов и музыкального изучения локальных вариантов напевов.

Ключевые слова: Кашкадарьинский оазис, Суст хотин, календарный обряд, обрядовый фольклор, обрядовые песнопения, региональные особенности, исполнительские традиции, этномузыкознание.

Qashqadaryo vohasining an’anaviy madaniyatida dehqonchilik va chorvachilik bilan bog‘liq urf-odatlar alohida o‘rin egallaydi. Vohaning tabiiy-geografik sharoiti, aholining ko‘p asrlik xo‘jalik tajribasi hamda tabiat hodisalariga munosabati turli mavsumiy marosimlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan [3, 3-b.]. Ayniqsa, yog‘ingarchilik miqdoriga bog‘liq bo‘lgan dehqonchilikda bahorning seryog‘in kelishi, ekinlarning yaxshi unishi va hosilning mo‘l bo‘lishi xalqning kundalik tashvishlari bilan chambarchas bog‘langan. Bunday sharoitda tabiatdan madad so‘rash, kelayotgan hosilga baraka tilash kabi istaklar muayyan urf-odatlar va ular bilan birga ijro etiladigan aytimlarda o‘z ifodasini topgan.

Yog‘ingarchilikni tilash bilan bog‘liq marosimlar orasida “Sust xotin” o‘zining o‘tkazilish tartibi, ishtirokchilar tarkibi va aytim matnlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Mazkur marosimning “Sus xotin”, “Suv xotin”, “Sut xotin”, “Suz xotin” singari nomlar bilan yuritilgan ko‘rinishlari folklorshunoslik adabiyotlarida qayd etilgan [2, 162–163-b.]. Ushbu nomlar bir-biriga yaqin marosim an’analarini ifodalasa-da, ularning barchasini mutlaqo bir xil udumning oddiy talaffuz variantlari deb baholash to‘g‘ri emas. Zero, marosimning mahalliy

ko‘rinishlari ayrim harakatlar, ramziy buyumlar va ijro tartibi bilan ham farqlanadi. Shu jihatdan “Sust xotin”ni faqat yomg‘ir so‘rashga qaratilgan odat sifatida emas, balki so‘z, ohang, harakat va xalq e’tiqodlari o‘zaro uyg‘unlashgan marosim sifatida o‘rganish muhimdir.

O‘zbek folklorshunosligida yomg‘ir chaqirish marosimlariga oid dastlabki qaydlar XIX asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi [2, 162-b.]. Keyingi tadqiqotlarda bu udumlarning hududiy ko‘rinishlari, mifologik asoslari, aytim matnlari hamda marosimning bajarilish tartibi yuzasidan muayyan ilmiy qarashlar shakllangan. Xususan, B. Sarimsoqovning marosim folkloriga oid izlanishlari, M. Jo‘rayevning mavsumiy marosimlar yuzasidan olib borgan tadqiqotlari va R. Abdullayevning marosim musiqasiga bag‘ishlangan monografiyasi mazkur masalani turli ilmiy nuqtayi nazarlardan yoritishga imkon beradi. Ularda marosimning kelib chiqishi, xalq tasavvurlaridagi o‘rni va ijro xususiyatlari bir-biri bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqilgan. Ayni paytda bu tadqiqotlar marosim aytimlarining mahalliy variantlarini o‘zaro qiyoslash zaruratini ham ko‘rsatadi.

Qashqadaryo vohasiga oid materiallar bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Filologiya fanlari doktori, professor M. Jo‘rayevning “O‘zbek mavsumiy marosim folklori” kitobida Chiroqchi va Qamashi tumanlarida qayd etilgan “Sus xotin”, shuningdek, Kasbi tumanidagi “Sut xotin” marosimi haqida etnografik ma’lumotlar keltirilgan [2, 165,168-b.]. Ushbu qaydlarda marosimni boshqaruvchi shaxslarning tanlanishi, qatnashchilarning harakatlari, xonadonlarni aylanib chiqish tartibi va aytiladigan qo‘shiqlar bir xil emasligi kuzatiladi. Bu tafovutlar voha miqyosida umumiy maqsadga xizmat qilgan marosimning turli mahalliy ko‘rinishlari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, marosimni ayollar yoki yigitlar ijro etishi bilan bog‘liq farqlar uning mahalliy ijro an’analarini aniqlashda muhim dalil bo‘la oladi.

“Sust xotin” aytimlarini musiqashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etishda qo‘shiq matnini marosimning amaliy jarayonidan ajratib bo‘lmaydi. Chunki bunday

aytimlarda so‘zning ma’nosi uning kim tomonidan, qanday vaziyatda va qanday ohang bilan ijro etilishiga ham bog‘liq. San’atshunoslik fanlari doktori, professor R. Abdullayev marosim musiqasini xalqning turmush tarzi, urf-odatlari va ijro an’analari bilan uzviy aloqada o‘rganish zarurligini asoslaydi [1, 116–119-b.]. Shu yondashuvdan kelib chiqib, Qashqadaryo variantlaridagi aytimlarning poetik tuzilishi, ijrochilar tarkibi va marosimdagi vazifasini birgalikda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bunda nashr etilgan matnlar mahalliy an’ananing muayyan belgilarini aniqlashga xizmat qilsa, musiqiy tuzilish haqidagi xulosalar bevosita nota yoki ovoz yozuvlari bilan tasdiqlanishi lozim.

Qashqadaryo vohasida qayd etilgan yomg‘ir tilash marosimlari o‘tkazilish tartibi va ishtirokchilarning vazifalari jihatidan o‘zaro farqlanadi. Jumladan, Chiroqchi tumanida bu udumni bajarish yoshi ulug‘ ayollardan biriga ishonib topshirilgan. Marosimga boshchilik qiluvchi ayolning serfarzand, turmushi farovon hamda o‘z onasining to‘ng‘ich farzandi bo‘lishiga alohida ahamiyat berilgan. U boshiga eski to‘n yoki chakmon yopinib, uch-to‘rt nafar ayol hamrohligida xonadonlarni aylanib chiqqan va marosimga xos aytimni ijro etgan. Mazkur ma’lumotlarda e’tiborni tortadigan jihat marosim boshqaruvchisining tasodifiy tanlanmaganidir. Uning oilaviy mavqeyi, farzandlarining ko‘pligi va to‘ng‘ich farzand sifatidagi o‘rni muayyan talab darajasiga ko‘tarilgan. Bunday tanlov zamirida ayolning serfarzandligi bilan tabiatdan kutilayotgan mo‘l-ko‘lchilik o‘rtasida ramziy bog‘liqlik mavjudligini taxmin qilish mumkin. Shuningdek, marosimdagi asosiy vazifaning keksa ayol zimmasiga yuklatilishi uning jamoa hayotidagi o‘rni va an’anaviy urf-odatlarni bajarishdagi mavqeyini ham ko‘rsatadi.

Qamashi tumanining Qirg‘izsaroy qishlog‘ida qayd etilgan ko‘rinishda esa marosimning tashkiliy jihatlari boshqacharoq bo‘lgan. Bu yerda bahor qurg‘oqchil kelganida marosimni yigitlar o‘tkazgan. Ular yog‘ochdan qo‘g‘irchoq yasab, unga ayollarning eski kiyimlarini kiydirgan va bosh qismiga ip bilan toshbaqa bog‘lagan.

Shundan so‘ng qo‘g‘irchoqni ko‘tarib uyma-uy yurishgan. Xonadon egalari esa uning bosh qismiga bog‘langan toshbaqa ustidan suv quyganlar. Bu jarayonda marosim aytimi ham ijro etilgan. Chiroqchi variantida e’tibor muayyan talablarga javob beruvchi ayol shaxsiga qaratilgan bo‘lsa, Qirg‘izsaroyda ayol qiyofasini ifodalovchi qo‘g‘irchoq marosimning asosiy buyumiga aylangan. Demak, bir-biriga yaqin hududlarda ayollik timsoli turlicha namoyon bo‘lgan: birida marosimni bevosita ayol boshqargan, ikkinchisida esa bu vazifani yigitlar bajargan holda ayol qiyofasi maxsus buyum orqali ifodalangan.

Qirg‘izsaroy udumidagi toshbaqa va uning ustidan suv quyish amali ham alohida e’tiborga loyiq. O‘zbek xalqining ayrim mifologik tasavvurlarida toshbaqa suv, yog‘ingarchilik va yer bilan bog‘liq ramziy obraz sifatida talqin qilingan. M. Jo‘rayev ushbu jonivor ishtirokidagi yomg‘ir chaqirish udumlarini xalq orasida saqlangan qadimgi e’tiqodiy qarashlar bilan bog‘laydi [2, 166–167-b.]. Biroq toshbaqaning marosimdagi vazifasini faqat bitta mifologik tushuncha bilan izohlash yetarli emas. Qirg‘izsaroy misolida uning qo‘g‘irchoqqa bog‘lanishi va ustidan suv quyilishi o‘zaro bog‘liq harakatlarni tashkil etgan. Bu amallarni yog‘ingarchilikni ramziy tarzda yuzaga keltirishga qaratilgan taqlidiy harakatlar sifatida sharhlash mumkin. Shunday bo‘lsa-da, mazkur talqin marosimning tarixiy kelib chiqishini to‘liq isbotlamaydi, balki undagi ramziy harakatlarning ehtimoliy ma’nosini tushuntirishga xizmat qiladi.

Kasbi tumanining Mirishkor qishlog‘ida yozib olingan “Sut xotin” marosimi esa yuqoridagi ikki ko‘rinishdan yana bir qancha belgilariga ko‘ra ajralib turadi. 1972-yilda Tupa Xidiraliyevadan qayd etilgan ma’lumotda aytilishicha, qurg‘oqchilik paytida xoda va cho‘plardan odamga o‘xshash qo‘g‘irchoq tayyorlanib, unga ayollar ko‘ylagi kiydirilgan, boshiga esa lachak yoki ro‘mol o‘ralgan [2, 168-b.]. Momolardan biri mazkur qo‘g‘irchoqni ko‘tarib yettita xonadonga kirgan va yomg‘ir tilash aytimini ijro etgan. Xonadonlardan yig‘ilgan

bug‘doy yorg‘uchoqda yanchilib, undan taom tayyorlangan. Keyinchalik yetti oilaning a’zolari bir joyga to‘planib, ushbu taomni birgalikda tanovul qilganlar. Marosim nihoyasida qo‘g‘irchoq taom tayyorlangan uyning tomiga tik qilib o‘rnatilgan. Bu variantda xonadonlar sonining yettita bilan chegaralangani, yig‘ilgan mahsulotdan umumiy taom tayyorlangani va qo‘g‘irchoqning marosim tugagach ham saqlab qo‘yilgani uning o‘ziga xos belgilarini tashkil etadi.

Uchala mahalliy ko‘rinishni qiyoslaganda, marosimning bajarilishida ayollar ishtiroki, ramziy buyumlar va xonadonlar bilan bog‘liq harakatlar turlicha uyg‘unlashgani ko‘zga tashlanadi. Chiroqchida keksa ayolning shaxsiy fazilatlari muhim sanalgan bo‘lsa, Qirg‘izsaroyda marosim buyumlari va ular bilan bajariladigan amallar yetakchi o‘ringa chiqqan. Mirishkor qishlog‘ida esa qo‘g‘irchoq bilan bog‘liq harakatlarga jamoaviy taom tayyorlash va uni birgalikda iste’mol qilish odati ham qo‘shilgan. Bu farqlarni marosimning uch mustaqil turi mavjud bo‘lganining dalili sifatida emas, bir an’ananing mahalliy sharoitlarda turlicha bajarilgan ko‘rinishlari sifatida baholash o‘rinli. Chunki ularning barchasida yog‘ingarchilik tilash niyati umumiy bo‘lib, shu niyatni amalga oshirish vositalari va ishtirokchilarning vazifalari bir-biridan farqlanadi. Aynan shu holat Qashqadaryo vohasi marosim folklorining hududiy xususiyatlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Sust xotin” marosimining mahalliy xususiyatlari unda ijro etilgan aytimlarning poetik mazmunida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Chiroqchi tumanidan qayd etilgan olti misrali namunada tabiatning muayyan holati tasviri bilan insonning undan kutayotgan istagi o‘zaro bog‘langan:

Shamol yeldi, bilmadingmi, sus xotin,
Qorlar ketdi, bilmadingmi, sus xotin,
O‘t-o‘lanlar quvragan dalalarda-
Qir-adirda kezmadingmi, sus xotin,
Arpa-bug‘doy to‘liq bo‘lsin, sus xotin,
Katta-kichik ko‘ngli to‘lsin, sus xotin [4, 108-b.].

Aytimning dastlabki misralarida shamol esishi, qorlarning erib ketishi va o‘t-o‘lanlarning qurishi tilga olinadi. Ushbu tasvirlar orqali qurg‘oqchilikning dehqonchilikka ta’siri ifodalanadi. Bunda “bilmadingmi” va “kezmadingmi” so‘roq shakllari alohida poetik vazifani bajaradi. Ular oddiy savol emas, balki murojaat qilinayotgan obrazning e’tiborini mavjud ahvolga qaratish vositasi sifatida qo‘llangan. So‘nggi ikki misrada esa tasvir o‘rnini ezgu tilak egallaydi. Arpa-bug‘doyning mo‘l bo‘lishi va katta-kichikning ko‘ngli to‘lishi haqidagi istaklar hosildorlik tushunchasining xalq farovonligi bilan bog‘langanini ko‘rsatadi. Shunday qilib, Chiroqchi aytimida tabiat holatini bayon etishdan tilak bildirishga o‘tuvchi izchil mazmun rivojlanishi kuzatiladi.

Qamashi tumanining Qirg‘izsaroy qishlog‘iga mansub aytimda esa tabiat hodisalarining bevosita tasviridan ko‘ra, yomg‘irga aloqador deb tasavvur qilingan obrazga murojaat qilish ustunlik qiladi. Olti misrali matnda “Sust xotin” obrazi havoning egasi, bahorning bekasi va mehribon ena sifatida ulug‘lanadi. Xususan, “ena” so‘zining qo‘llanishi mazkur obrazga onalik va mehribonlik sifatlarining berilganini anglatadi:

Havolarning egasi, sus xotin,
Bahor oyi Bekasi, sus xotin,
Sen mehribon enasan, sus xotin,
Ko‘k toqining erkasi, sus xotin,
Bulutlarni qamchilat, sus xotin,
Ekinlarga tomchilab, sus xotin [4, 107-b.].

Aytimning dastlabki to‘rt misrasida obrazning mavqeyi ta’riflansa, oxirgi ikki misrada undan bulutlarni harakatga keltirish va ekinlarga yomg‘ir yog‘dirish so‘raladi. Bunday tuzilish dastlab marosim obrazini ulug‘lash, keyin esa unga muayyan iltimos bilan murojaat etish tamoyiliga asoslangan. Ayniqsa, bulutlarni qamchilash tasviri diqqatga sazovor. Unda yomg‘ir yog‘ishini kutish holati harakatga undovchi obrazli ifoda orqali berilgan. Chiroqchi namunasidagi so‘roq


ohangiga asoslangan murojaat Qirg‘izsaroy variantida ta’rif va buyruq-istak mazmunidagi ifodalar bilan almashgan.

Mazkur ikki namunaning poetik qurilishida “Sust xotin”ga murojaatning takrorlanib kelishi umumiy belgi hisoblanadi. Biroq takrorning matn tarkibidagi vazifasi bir xil emas. Chiroqchi variantida u so‘roq va tilak mazmunidagi misralarni birlashtirsa, Qirg‘izsaroyda obrazni ulug‘lovchi ta’riflar hamda iltimosni yagona mazmun atrofida jamlaydi. Bu farqlar marosim aytimlari muayyan poetik qolipga ega bo‘lishi bilan birga, mahalliy ijro an’analarida mazmunan turlicha shakllanganini ko‘rsatadi. Takrorlanuvchi so‘z birikmalarining mavjudligi ularning musiqiy ijrosida ham ahamiyat kasb etishi mumkin. Chunki marosim qo‘shiqlarida she’riy matn bilan kuy jumlalari o‘rtasidagi munosabat ohang tuzilishining muhim omillaridan biridir. Ammo takrorlarning muayyan kuy jumlasiga mos kelishi, ularning davomiyligi yoki ritmik tashkil etilishi faqat matn asosida emas, balki tegishli musiqiy namunalar orqali aniqlanishi lozim [1, 82–85-b.].

“Sust xotin” aytimlarining ijro xususiyatlarini o‘rganishda, avvalo, xonandaning marosim jarayonidagi vazifasi va kuylash uslubiga e’tibor qaratish lozim. Professor R. Abdullayevning tadqiqotida yomg‘ir chaqirish qo‘shiqlarining yakka, ikki kishilik hamda jamoaviy ijro shakllari mavjudligi qayd etilgan [1, 116-b.]. Muallifning kuzatishicha, bunday aytimlar ko‘pincha ochiq maydonlarda, ovozni baland chiqarib kuylangan va qisqa ohang tuzilmalarining takrorlanishiga asoslangan. Professor M. Jo‘rayev tadqiqotlaridagi Qashqadaryoga oid etnografik qaydlarda ham ijrochilar tarkibi haqida muayyan ma’lumotlar uchraydi. Chiroqchi va Mirishkor variantlarida marosim aytimini ijro etuvchi momo tilga olingan bo‘lsa, Qirg‘izsaroyda qo‘shiq yigitlar tomonidan aytilgani ko‘rsatiladi [2, 165,168-b.].


Marosim aytimlarining kuy tuzilishida qisqa intonatsion birliklar va ularning takrorlanishi muhim o‘rin tutadi. R. Abdullayev monografiyasida keltirilgan “Sust xotin” nota namunalari bunga misol bo‘la oladi. Jumladan, 116-betdagi namuna 2/4

o‘lchovida berilgan bo‘lib, unda ixcham ohang tuzilmasi matnning navbatdagi bo‘laklari bilan ijro etiladi:



1-rasm.

118-betdagi variantlarda esa kuy harakatining bir-biriga yaqin tovushlar doirasida kechishi va qisqa musiqiy jumlalarning takrorlanishi kuzatiladi. Mazkur xususiyatlar aytimning keng rivojlanuvchi kuyga emas, muayyan chaqiriq va murojaatni ifodalovchi ixcham musiqiy tuzilishga tayanishini ko‘rsatadi. Bunda musiqiy fikrning davomiyligi yangi ohanglarning ketma-ket paydo bo‘lishi hisobiga emas, mavjud intonatsion birliklarning takrorlanishi hamda qisman o‘zgarishi orqali ta’minlanadi.



2-rasm.

Rustambek Abdullayev yomg‘ir chaqirish aytimlarining musiqiy tuzilishida ikki muhim xususiyatni ajratib ko‘rsatadi. Ulardan biri bir xil intonatsion-ritmik tuzilmaning muntazam takrorlanishi bo‘lsa, ikkinchisi takrorlanuvchi ohangning

muayyan o‘zgarishlar bilan rivojlanishidir. Har ikkala holatda ham musiqiy jumla nutq murojaatining ohang xususiyatlari bilan bog‘liq shakllanadi. Ayniqsa, chaqiriq mazmunidagi intonatsiya bilan iltimosni ifodalovchi ohanglarning o‘zaro munosabati mazkur aytimlarning musiqiy tabiatini belgilashda ahamiyatlidir. Muallif tahlil qilgan ayrim namunalarda pasayuvchi va ko‘tariluvchi sekundali ohang harakatlari asosiy ifoda vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi [1, 118–121-b.]. Bu jihatdan marosim aytimida kuy mustaqil ravishda keng rivojlanishdan ko‘ra, ijro etilayotgan so‘zning ifodaviy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shunga qaramay, mazkur musiqiy belgilarni Qashqadaryoning barcha mahalliy variantlariga birdek xos deb hisoblash uchun ularning bevosita ovoz yozuvlari yoki nota matnlariga ega bo‘lish zarur.

Marosim musiqasining yana bir jihati undagi ovoz va harakatning o‘zaro munosabatidir. R. Abdullayev ayrim hududlardan yozib olingan yomg‘ir chaqirish aytimlarida kuylash tana harakatlari, qo‘l ko‘tarish yoki tebranish bilan birgalikda bajarilganini ta’kidlaydi. Ba’zi variantlarda esa maxsus tovush chiqaruvchi moslamalardan foydalanilgan. Xususan, Boysun hududida qayd etilgan marosimda qovoq va qamish bo‘laklaridan tayyorlangan “qovoq soz” yordamida g‘uvillashga o‘xshash tovush hosil qilingan. Bunday tovush marosim aytimining ijrosiga qo‘shimcha jarangdorlik bag‘ishlagan.

Qashqadaryo vohasidagi “Sust xotin” aytimlarining musiqiy xususiyatlarini to‘liq aniqlash uchun mahalliy ijrochilardan yozib olingan namunalarni o‘zaro qiyoslash muhimdir. Bunda kuylarning lad asosi, tovushqatori, diapazoni, tayanch pardalari, ohang jumlalarining tuzilishi, ritmik harakati va ijro sur’ati alohida tahlil qilinishi lozim. Ayniqsa, bir xil murojaat ifodasining turli ijrochilar tomonidan qanday ohangda kuylanishi, yakka va jamoaviy ijro o‘rtasidagi farqlar hamda aytimning marosim harakatlariga moslashuvi hududiy uslubni aniqlashga xizmat qiladi. Bunday yondashuv marosim aytimlarini faqat folklor matni sifatida emas,

o‘ziga xos musiqiy ifoda vositalariga ega ijod namunasi sifatida baholash imkonini beradi.

Qashqadaryo vohasida tarqalgan “Sust xotin” marosimi aytimlarining qiyosiy tahlili ushbu an’ananing umumiy mazmuni saqlangan holda, hududiy jihatdan turlicha shakllanganini ko‘rsatadi. Chiroqchi, Qamashi va Kasbi tumanlarida qayd etilgan namunalarda marosim ishtirokchilari, bajarilish tartibi hamda aytimlarning poetik ifodasida muayyan tafovutlar mavjud. Bu xususiyatlar mahalliy urf-odatlar va ijro an’analarining o‘zaro bog‘liq holda rivojlanganidan dalolat beradi.

Aytimlar tahlilida takrorlanuvchi murojaatlar, tabiat hodisalariga qaratilgan obrazli ifodalar hamda tilak mazmunidagi misralar yetakchi o‘rin tutishi aniqlandi. Qiyosiy musiqashunoslik materiallari esa qisqa intonatsion tuzilmalar va ularning takrorlanishi yomg‘ir chaqirish aytimlariga xos muhim belgilardan ekanini ko‘rsatadi. Biroq Qashqadaryo variantlarining bevosita musiqiy tuzilishini aniqlash mahalliy ovoz yozuvlari va nota namunalarini o‘rganishni talab etadi. Hozirgi kunda esa bunday marosimlarning deyarli o‘tkazilmayotgani tufayli yangi dala materiallari topilmagani achinarli.

Shunday qilib, “Sust xotin” marosimi Qashqadaryo vohasining mavsumiy folklorida xalq e’tiqodlari, dehqonchilik an’analari va musiqiy-poetik ijod o‘zaro tutashgan madaniy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Uning mahalliy namunalarini audiovizual shaklda hujjatlashtirish, ijro xususiyatlarini qiyosiy tadqiq etish va ilmiy muomalaga kiritish ushbu an’ananing o‘ziga xos belgilarini to‘laroq ochishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Р. С. Обряд и музыка в контексте культуры Узбекистана и Центральной Азии. Ташкент: [б. и.], 2006. 334 с.
2. Jo‘rayev M. O‘zbek mavsumiy marosim folklori: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Fan, 2008. 294 b.
3. Ravshanov P. Qashqadaryo tarixi (eng qadimgi davrlardan XIX asr II yarmiga qadar). Toshkent: Fan, 1995. 784 b.

4. Rahmonov F. Sh. Qashqadaryo vohasi aholisining ziroatchilikka oid urf-odatlari va marosimlari (XIX asrning oxiri – XX asr boshlari): tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent, 2001. 183 b.
5. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. Toshkent: Fan, 1986. 216 b.

References

1. Abdullayev, R. S. *Obryad i muzyka v kontekste kul’tury Uzbekistana i Tsentral’noy Azii [Ritual and Music in the Context of the Culture of Uzbekistan and Central Asia]*. Tashkent: [publisher not identified], 2006. 334 pp. (in Russian)
2. Jo‘rayev, M. *O‘zbek mavsumiy marosim folklori [Uzbek Seasonal Ritual Folklore]*. Study guide. Tashkent: Fan, 2008. 294 pp. (in Uzbek)
3. Ravshanov, P. *Qashqadaryo tarixi (eng qadimgi davrlardan XIX asr II yarmiga qadar) [History of Kashkadarya (from Ancient Times to the Second Half of the Nineteenth Century)]*. Tashkent: Fan, 1995. 784 pp. (in Uzbek)
4. Rahmonov, F. Sh. *Qashqadaryo vohasi aholisining ziroatchilikka oid urf-odatlari va marosimlari (XIX asrning oxiri – XX asr boshlari) [Agricultural Customs and Rituals of the Population of the Kashkadarya Oasis (Late Nineteenth – Early Twentieth Centuries)]*. Candidate of Historical Sciences dissertation. Tashkent, 2001. 183 pp. (in Uzbek)
5. Sarimsoqov, B. *O‘zbek marosim folklori [Uzbek Ritual Folklore]*. Tashkent: Fan, 1986. 216 pp. (in Uzbek)